



## ZARDUSHTIYLIK DINING VUJUDGA KELISH SABABLARI

**Sobirov Zafar Karimovich**

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli  
Toshkent akademik litsey tarix fani o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15803998>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola insoniyat sivilizatsiyasidagi ilk diniy e'tiqodlardan biri bo'lmish zardushtiylik dinining paydo bo'lish sabablari, ushbu din paydo bo'lishi va dinning tarqalishi haqida so'z yuritiladi.

**Annotation:** This article discusses the origins of Zoroastrianism, one of the earliest religious beliefs in human civilization. It explores the reasons for the emergence of this religion, its development, and the spread of Zoroastrianism.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются причины возникновения зороастризма — одной из первых религиозных верований в истории человеческой цивилизации. Освещаются процессы зарождения этой религии, её развитие и распространение.

**Kalit so'zlar:** Zaratushtra, ko'pxudolik dinlari, "Mazdayasna", "Behdin", AxuraMazda, "Goxlari", "Yasht", Bratarvaxsh, Kavi Vishtaspa, so'g'diylar, ostadon.

**Keywords:** Zoroaster, polytheistic religions, Mazdayasna, Behdin, Ahura Mazda, Gathas, Yasht, Bratarvakhsh, Kavi Vishtaspa, Sogdians, ossuary.

**Ключевые слова:** Заратуштра, политеистические религии, «Маздаясна», «Бехдин», Ахура-Мазда, «Гаты», «Яшты», Братарвахш, Кави Виштаспа, согдийцы, оссуарий.

Tarixdan ma'lumki dunyoda juda ko'plab dinlar mavjud bo'lgan. Ularning ba'zilari esa hozirga qadar saqlanib qolgan. Bu mavzuda gap boshlar ekanmiz avvalo "Din bizga nimaga kerak?"- degan savol paydo bo'ladi. Gap shundaki nafaqat tarixda, balki bugungi kunda ham ijtimoiy hayotni diniy e'tiqodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Negaki din bo'lmasa insoniyat ham bo'lmaydi. Din bu jamiyatni bir maromda ushlab turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki din bo'lmasa jamiyatda har xil buzg'unchilik, talonchilik, jinoyat, faqat bugungi kun bilan yashash kabi bir qancha salbiy g'oyalar jamiyatning har bir jabhasiga o'zining ulkan ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Ayni paytda din tarixning har bir bosqichida xalqlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojiga ulkan hissa qo'shib kelgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Osiyoning markaziy qismida shunday bir yorug'lik paydo bo'ldi-ki bu narsa o'sha davr insoniyat taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Sharqiy Eron va Markaziy Osiyo qabilalarining ijtimoiy tuzumi o'zgarayotgan va diniy qarashlari hamda jamiyatga ro'y berayotgan tabaqalanish davom etayotgan bir paytda Amudaryo bo'ylarida yangi ta'limot vujudga keldi.





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Bu ta'limot o'lkada shakllangan ko'pxudolik va oshiqcha sarf harajatlarga, atrof muhitni ifloslanishiga hamda insonlar hayotida muhim o'rin tutgan jonli hayvonlarni qirib, ko'p qurbonliklar qilinishiga qarshi turoladigan ta'limot edi. Bu ta'limotga amal qilgan inson butun umri davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal kabi g'oyalarni qalbiga joylashi kerak edi. Bu din zardushtiylik dini edi. Ushbu din dualizmga asoslangan, ya'ni olam ikki ibtido; yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat deb uqtiradi. Zardushtiylik dini eng qadimgi dinlardan bo'lib, bu din eradan avvalgi VII-VI asrlarda dastavval O'rta Osiyoda-Xorazm vohasida paydo bo'lgan. Uning payg'ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdakiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi yakka xudolik dinini ijod etgan. Zardushtiylik paydo bo'lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quldorlik davri endi paydo bo'layotgan davr edi. U urug'-qabilachilik tuzumi emirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ng Eron, Ozarbayjonda qaror topgan edi. Butun O'rta Osiyo moddiy va ma'naviy madaniyatining beshigi Xorazm vohasi va u erda yashagan turkiy elatlar bo'lgan, shulardan o'zbek elati tashkil topgan.

Zardushtiylik eradan avvalgi VII-VI asrlarga xos bo'lgan din sifatida undan oldingi urug' qabilachilik dinlari negizida paydo bo'lgan yakka xudolik dini bo'lgan. U to VII-IX asrlargacha turli shaklda davom etib, so'ng o'rnini islom egalladi. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, yaqin va o'rta Sharqqacha tarqalib, ayrim qoldiqlari haligacha saqlanib kelmoqda.[1]

Zardushtiylik miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik vahiy orqali e'lon qilingan jahon dinlarining eng qadimiysidir. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi uqidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g'oyalar yahudiylik, xristianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq echilgan masalalar emas.

Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish Avestoda «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil»





ITALY



ITALY

kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan.

Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shilib, zardushtiylikning ilohiyati – Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir. Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushra, Zarduts, Zoroatsr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan miloddan avvalgi 1200-570 yillar orasida yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Tadqiqotchi M. Boys ta'kidlashicha, u miloddan avvalgi 1500-1200 yillar orasida yashagan.

Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka negizlangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi. Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi xususida ikki xil qarash bor.[2] Birinchisi – «G'arb nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi.

Bu fikr tarafdorlarining dalili shuki, birinchidan, zardushtiylikning qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiy Eron-pahlaviy tilida bo'lganligidir.

E'tibordan chiqarmaslik kerakki, zardushtiylik uch buyuk Eron imperiyasi – Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar davrlarida, ya'ni miloddan avvalgi XI asrdan to miloddan avvalgi XII asrigacha ketma-ket aynan Yaqin va O'rta Sharqda davlat dini maqomida bo'lgan. Ikkinchisi, «Sharq nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra, Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko'pchilik manbashunoslar ikkinchi nazariya tarafdorlaridirlar.

Xorazm zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog'langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «Ozarxurra» «Airyanem-Vaeja» (ba'zi manbalarda – «Eran-vej»)da yoqildi», deyiladi.[3] «Airyanem-Vaeja»ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to'g'ri keladi.

Avestoda Axura-Mazda tomonidan yaratilgan «Barakot va najot» sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi, «dunyoda hech narsa chiroyiga teng kela olmas Airyanem-Vaeja», keyin esa «odamlar va



ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

chorva podalariga mo'l» Sug'd (So'g'd), «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati» Baxdi (Baqtriya) zikr etiladi.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi aholisining «eski dini»ga) nisbatan monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq er ochib, uni bog'u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi.[4] Aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar.

Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. Bunga ko'ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajak, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga, yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy – misvongatuga tushadi. Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi. Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi. Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliigi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyliigi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, sig'inishi shart. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, er va havo ulug'lanadi. Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha pats, baland «sukut minoralari» – daxmalarga solinadi, u erda murdalarning go'shtlarini qushlar eb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib minora o'rtasidagi quduqqa sochib yuboriladi. Bunda poklik bilan nopoklikning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi. Zardushtiylik dini dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri hisoblanib, mil. av. XII-XI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari unga e'tiqod qilganlar. Eronda Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida uning muqaddas kitobi Avesto ruhoniylar tomonidan og'zaki rivoyatdan yig'ilib, birinchi marta kitob shakliga keltirilgan. Ayrim qismlariga, ayniqsa «Videvdat» bo'limiga o'zgartirishlar kiritilib, qayta ishlangan. VII asrda O'rta Osiyoga islom dini kirib kelib, keng tarqalguniga qadar





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan. Buni, jumladan, arxeologik tadqiqotlar isbotlaydi. Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud. Zardushtiylar olov, tuproq, suv va yulduzlarga sig'inishgan, ularni muqaddas hisoblashgan. "Zardushtiylik" so'zi xam Zardusht (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) ismidan kelib chiqqan. U miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida yashab o'tgan tarixiy shaxs. Keyinroq Yunonistonda Zardushtning ismi Zoroastr shaklida jaranglaydi. (yunoncha "Astron" - "yulduz"), negaki Yunonistonda uni birinchi galda donishmand, munajjim sifatida bilishgan. Zardushtiylik tarqala boshlagan paytlarda ibodatxonalar va odamlar duo matnlarini o'rganish uchun maxsus kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq osmon ostida, gulxan yonida yoki uydagi o'choq olovi o'rtasida o'tkazilgan. Avval turli qabilalarni istilochilarga qarshi kurashda birlashtirish uchun Zardusht ularni birlikka da'vat qilgan. Zardushtning so'nggi va'zlari din xizmatchilari-kohinlar tomonidan yozib olingan. Zardushtiylik kohinlari diniy matnlarni yod olib, dindorlarga o'qib berishgan. Zardushtning vafotidan keyin bir necha asrlar o'tgach, barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar zardushtiylar uchun muqaddas bo'lgan bir kitobda jamlandi. Bu kitobning nomi "Avesto" bo'lib, "qat'iy belgilangan qonun - qoidalar degan ma'noni anglatadi. Avesto (parfiyoncha: apastakmatn: ko'pincha "Zend-Avesto keltirib chiqaradigan hayot tarzi deb qoralanadi. Dehqonchilik esa yaxshilik belgisi sifatida rag'batlantiriladi. Zardushtiylik oqimida olov gunoxlardan tozalovchi sehrli kuch deb qaraladi. Zardushtiylik oqimida murdani tuproqqa ko'mish yoki kuydirishni ta'qiqalaydi. Bu oqim jonning o'lmasligini, uning abadiyligini tan oladi, Jannat va do'zaxni ham e'tirof etadi. Otashkada zardushtiylarning ibodatxonasi hisoblanadi. Mil. avv. VII-VI asrlarda Osiyoning markaziy qismida shunday bir yorug'lik paydo bo'ldi - ki bu narsa o'sha davr insoniyat taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Sharqiy Eron va Markaziy Osiyo qabilalarining ijtimoiy tuzumi o'zgarayotgan va diniy qarashlari hamda jamiyatga ro'y berayotgan tabaqalanish davom etayotgan bir paytda Turon pasttekisligida, aniqrog'i Amudaryo bo'ylarida yangi ta'limot vujudga keldi. Bu ta'limot o'lkada shakllangan ko'pxudolik va oshiqcha sarf harajatlarga, atrof muhitni ifloslanishiga hamda insonlar hayotida muhim o'rin tutgan jonli hayvonlarni qirib, ko'p qurbonliklar qilinishiga qarshi turoladigan ta'limot edi. Bu ta'limotga amal qilgan inson butun umri davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal kabi g'oyalarni qalbiga joylashi kerak edi. Bu din zardushtiylik dini edi. Ushbu din dualizmga asoslangan, ya'ni olam ikki ibtido; yorug'lik va qorong'ulik, yaxshilik va yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat deb uqtiradi





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Zardushtiylik dini eng qadimgi dinlardan biri hisoblanib, bu din miloddan avvalgi VII-VI asrlarda vujudga kelgan. Bu dinning paydo bo'lishiga oid turli xil qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht asli Midiyalik (hozirgi Eron hududida faoliyat yuritgan) bo'lgan deb hisoblashadi. Ularning fikricha ushbu din hozirgi Eron hududida paydo bo'lgan. Tadqiqotchi M.Toysning fikricha Zardusht mil. avv. 15001200- yillar oralig'ida yashab o'tgan va Markaziy Osiyoda (ya'ni Xorazm hududida) mavjud bolgan diniy e'tiqodlarni isloh qilib yangi bir din bo'lmish zardushtiylik diniga asos soldi. Mil. avv. VII-VI asrlarda Markaziy Osiyoda qabilaviy ittifoqlar va urug'aymoqchilik munosabatlariga asoslangan Xorazm va Baqtriya qadimgi davlat birlashmalari vujudga kelgan. Bu mamlakatlar mintaqada uzoq vaqt davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy madaniy jarayonlarning hosilasi bo'lgan. Ular ta'sirida jamiyatda tutgan o'rni, imkoniyatlari va ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan guruhlar, tabaqalar va sinflar yuzaga kelgan. Davlat esa mavjud ijtimoiy munosabatlarni himoya qiluvchi siyosiy tashkilot hisoblangan. Ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar talablariga ibtidoiy madaniyat va ibtidoiy e'tiqod mos kelmagan. Shu bois diniy e'tiqodni ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlarga muvofiqlashtirish zarur edi. Zardushtiylik dini esa mazkur talablarga mos diniy ta'limot va o'ziga xos dunyoqarash sifatida yuzaga kelgan. Zardushtiylik dinining vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat - tabiat kuchlari, mavjudotlar va ruhlarni muqaddaslashtiruvchi, o'z qiyofasiga ega, ishlab chiqarish sohalariga homiylik qiladigan, kuch va imkoniyatlariga ko'ra guruhlashtirilgan qudratli xudolar bilan almshtirish zarur edi; - jamiyat ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, sinflar va davlatning yuzaga kelishi natijasida eski munosabatlarni aks ettiruvchi ibtidoiy din shakllarining yangi davr talablariga mos kelmay qoldi; - ma'naviy tajribani umumlashtirish va ularga ilohiy tus berish bilan jamiyat va davlatni yanada mustahkamlash zarur edi. [5] Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish "Avesto" da ushbu dinning nomi "Mazdayasna" dini deb atalgan. Bu so.,zni "Mazdaga sig'nmoq" deb tarjima qilish mumkin. "Mazda" so'zi "donish, oqil, donishmand" kabi talqin etiladi. Zardushtiylik yana "Behdin", ya'ni "Eng yaxshi din" deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. "Mazda" so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi "Axura" so'zi qo'shilishi natijasida Zardushtiylik dini oliy xudosi hisoblanmish Axura-Mazda nomi paydo bo'ldi. Zardushtiylik dini paydo bo'lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quldorlik jamiyati davri endi paydo

bo'layotgan davr edi. U urug'chilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avvalo O'rta Osiyodan tashqari Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Yaqin va O'rta Sharqning bir qancha mamlakatlarga tarqalgan edi. Zardushtiylik dinini paydo bo'lgan zamin Xorazm vohasida qadimdan bir qancha turkiy elatlar yashab kelgan. Bu din mil. avv. VII-VI aslarga xos din sifatida o'zidan oldingi urug' qabilachilik dinlari negizida paydo bo'lgan din hisoblanadi. Zardusht nomi ham turli tadqiqotlarda turlicha keltiriladi. Masalan, Zaratushtra (ma'nosi- "sariq tuya sohibi", "zarg'in yorug'lik egasi"), Zarduts, Zoroastr ko'rinishlarida ham ishlatiladi.[6] Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi to'g'risida ham aniq yechimga kelinmagan. Ba'zi tadqiqotchilar uni tarixiy shaxs deya e'tirof etishsa, ba'zilari esa ularda farqli o'laroq uni afsonaviy shaxs deya ta'kidlashadi. U Quyi Amudaryo hududlarida yashovchi oriy qabilasining yirik urug'laridan bo'lmish Spitama urug'idan bo'lgan. U 23 yoshidan boshlab jamiyatdagi kamchiliklarga turli xil qabilalarning turli xudolarga sig'inishi natijasida ular o'rtasidagi urushlarning ko'payishiga, qolaversa, har xil xudolar uchun qilinadigan qurbonlik (qurbonlikka odamlar ham ishlatilgan)larni sabab qilib ko'rsatadi va 30 yoshidan boshlab yagona oliy xudo Axura-Mazdaga sig'inish kerakligini targ'ib qila boshlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki maqolada zardushtiylik dinining paydo bo'lishi, uning asoschilari, asosiy g'oyalari va diniy matnlari, shuningdek, uning tarixiy ahamiyati va tarqalish jarayoni tahlil qilinadi. Zardushtiylik dini qadimgi Sharq sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/zardushtiylik-dinida-olamni-yaratilishihaqidagita-limotlar/viewer>
2. A.V.Narbekov. "Dinshunoslik asoslari". Toshkent-2012. 81-bet.
3. <http://xorazmiy.uz>
4. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/z/zardushtiylik/>
5. A.Sagdullayev, B.Aminov, O.,Mavlonov, N.Norqulov. "O,,zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti". I-qism. "Akademiya" nashriyoti. Toshkent- 2000. 19-bet.
6. M.Is"hoqov. "Avesto, uning insoniyat taraqqiyotidagi o,,rni" konferensiyasidagi tezislar to,,plamidan. O,,zR FA. 2001-yil. 5-bet.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zardushtiylik>